

ILMIY USLUBDA QO'LLANUVCHI MURAKKAB ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Bakirova Elnora Anvarovna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(Farg'ona tumani 1-umuta'lim maktabi o'qituvchisi)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15798624>

Annotatsiya: Maqolada ilmiy uslubda qo'llanuvchi murakkab ergash gapli qo'shma gaplar, ularning turlari ko'rib chiqilgan. Murakkab ergash gapli qo'shma gaplarda murakkab fikrning ifoda etilishi, uning bir necha dalillar yordamida turli tomondan isbotlanishi, qayd qilinishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: murakkab sintaktik qurilmalar, sintaktik aniqlik, sintaktik pozitsiya, ellipsisli qo'shma gap.

Abstract: The article examines compound sentences with complex subordinate clauses used in scientific style, analyzing their types. It discusses how complex ideas are expressed in such sentences, emphasizing their justification from various perspectives based on several pieces of evidence.

Keywords: complex syntactic constructions, syntactic clarity, syntactic position, compound sentences with ellipsis.

Аннотация: В статье рассматриваются сложноподчиненные предложения, используемые в научном стиле, и их типы. Анализируется выражение сложных мыслей в сложноподчиненных предложениях, их многосторонняя аргументация с помощью нескольких доказательств, а также их фиксация.

Ключевые слова: сложные синтаксические конструкции, синтаксическая точность, синтаксическая позиция, эллиптическое сложносочиненное предложение.


Ilmiy uslub ilm-fanga asoslangan uslub bo'lib, daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanadi, har bir fan sohasining atamalariga tayanadi, fikrni aniq, tushunarli va mantiqiy izchil shaklda bayon qiladi.

Ilmiy stilning grammatik qurilishi mantiqiy bog'liqlikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni talab etadi. Shu bilan bir qatorda bu nutq emotsional va obrazli bo'yoqqa ham egadir. Bu uslubni aniq va ravshan bo'lishini uning obrazli va emotsionalligiga qarshi qo'yish to'g'ri emas [1.24-bet]: *O'g'li ko'krigidan jarohat yeb, dalada jonsiz yotibdi, lekin qo'li dushmanning bayrog'ini changallagan qotib qolgan, shuning uchun shoir uni "pahlavon" degan sifat bilan siyladi.* (8-sinf adabiyot darsligi)




Bu uslubda juda ko'p miqdorda qo'shma gaplardan foydalaniladi. Chunki qo'shma gaplar ilmiy tushunchalarni ma'lum bir qolipga solib ifodalashda qulay vositadir. Ilmiy nutqda narsa-buyum, voqea-hodisalarning turli belgi va xususiyatlari sharxlanadi, ularning nimadan iborat ekanligi qayd qilinadi. Bunday vaqtda o'z-o'zidan qo'shma gaplarga ehtiyoj tug'iladi [1.24-bet]. Tilshunos olim A.Mamajonov tomonidan keltirilgan ushbu fikrlarni murakkab ergash gapli qo'shma gaplar borasida ham ta'kidlash mumkin. Boisi ilmiy nutqda qo'shma gaplarnig eng

mahsuldor turi ergash gapli qo'shma gaplar hisoblanadi. Bu turdagi murakkab sintaktik qurilmalarda, ko'pincha, ilmiy ma'lumot murakkab ergash gap orqali bayon qilinadi, bosh gap esa, asosan, fikrni kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajaradi: *Sezib turibsizki, she'rdagi it shunchaki it emas – u "ona"*. (8-sinf Adabiyot darsligi)




Ilmiy nutq uslubida murakkab ergash gapli qo'shma gaplarga juda ko'p murojaat qilinadi. Bu holat murakkab ergash gapli qo'shma gaplarda murakkab fikrning ifoda etilishi, uning bir necha dalillar yordamida turli tomondan isbotlanishi, qayd qilinishi bilan bog'liqdir: *Ma'lum bo'ldiki, lug'at maqolasi bosh so'zning o'ziga tuzilgan bo'lishi yoki shu bosh so'zdan hosil qilingan yasama so'z hamda tarkibida shu so'z ishtirok etgan turg'un birikmalar bo'lsa, ularda tuzilgan lug'at "maqolacha"larni ham o'z ichiga olishi mumkin.* (O'zbek tili izohli lug'ati. I jild)




Turlicha sintaktik pozitsiyaga xoslangan murakkab ergash gaplar o'zi izohlayotgan bosh gap mazmunini to'ldirishga, aniqlashga va izohlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, izlanishlarimiz natijasida, ilmiy uslubda murakkab ergash gapli qo'shma gaplarning barcha turlari uchrashiga guvoh bo'ldik:


1. Murakkab kesim ergash gap orqali ma'nosi ochib berilayotgan bosh gapning kesimi o'rin kelishigi shaklida qo'llanilishi mumkin: *Dahshatlisi shundaki, Cho'lponning o'limiga hukm qilingan sud qarori 1938-yilning 5-oktabrida chiqarilgan edi, o'zbekning buyuk shoiri esa uzoq qiynoq va tahqirlardan keyin 1938-yilning 4-oktabrida Toshkent yaqinidagi xilvat joylarning birida otib tashlandi.* (8-sinf Adabiyot darsligi)




2. Murakkab ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi. Buning sababi shundaki, asosiy mazmun murakkab ergash gapda ifodalanadi, bosh gap esa asosiy fikrga diqqatni jalb etadi: *Ma'lumki, 8 ni 1, 2, 4 va 8 sonlaridan biriga bo'lsak, qoldiq 0 chiqadi.* (6-sinf Matematika darsligi)



3. Murakkab aniqlovchi ergash gap bosh gapda ot orqali ifodalangan egani aniqlab keladi: *Tabiatda shunday tabiiy metall birikmalari mavjuddirki, ular ba'zi bir jismlarni o'ziga tortish xususiyatiga ega bo'lsa, atrofida maydon mavjudligini bildiradi.* (11-sinf Fizika darsligi)




4. Murakkab to'ldiruvchi ergash gap bosh gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan *shu* olmoshini izohlab keladi: *Shuni aniq aytish mumkinki, birinchi holda o'quvchilar aniq va taqribiy qiymatlari orasidagi farq (ayirma) manfiy, ikkinchi holda esa musbat.* (8-sinf Algebra darsligi)




5. Murakkab hol ergash gapli qo'shma gap:

- **murakkab sabab ergash gap** bosh gapdagi voqea, harakatning yuzaga kelishidagi aniq sababni ko'rsatadi: *O'n to'rt yoshga to'lganlar ayrim qilmishlarining jinoyat ekanligini anglaydi, o'z harakatlarini esa to'liq boshqara oladi, shuning uchun JKning 17-moddasida o'n to'rt yoshdan jinoyat sub'yekti bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning ro'yxati berilgan.* (8-sinf Huquq darsligi)



- **murakkab natija ergash gap** ning o'rni qat'iy, u har doim bosh gapdan keyin joylashadi: *Shunday musbat m sonni topingki, natijada berilgan ifoda yig'indi bo'lsin yoki ayirmaning kvadrati bo'lsin.* (8-sinf Algebra darsligidan)



Ilmiy uslub fikrning tugalligi, to'liqligi, mantiqiyligi, matn tarkibidagi gaplarning mazmunan bog'lanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Shu bois ilmiy nutqda ellipsisli (nazarda tutilgan biror so'zning tushib qolish hodisasi) qo'shma gaplardan foydalanilmaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент, 1983.
2. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Тошкент. 1990. 53-бет.
3. Шувалова С.А. Смысловые отношения в сложном предложении и способы их

выражения. – М.: Изд-во МГУ, 1990.

4. Тешабоев Д. Ўзбек тилидаги эргаш гапли қўшма гапларнинг фалсафий тадқиқи: Филол.фан.док. ... дисс. – Фарғона, 2023. – 81-бет.

5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.37-бет.